



exclusive
EVENT

Nominatsiya:

Integratsiyalangan kampaniya

Brend: «M-Exclusive Event»

Kampaniyaning qisqacha nomi: Orzularni haqiqatga aylantiramiz

EVENT

Muammo!

"M-Exclusive" - O'zbekiston reklama bozorida jadal rivojlanib kelayotgan kompaniyalardan biri bo'lib, u 2017-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda, kompaniya tomonidan kompleks reklama xizmatlarini taqdim etish maqsadida, brendlarni va ular tomonidan taklif etilayotgan tovar va xizmatlarni targ'ib etishga yo'naltirilgan bir nechta bo'linmalari mavjud. Jumladan, tashqi reklama xizmatlari, tadbirlar uchun texnik-uskunalar ijarasi, digital-marketing va tadbirlarni tashkil etish xizmatlari.

Muammo!

“M-Exclusive Event” - korporativ tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etishga ixtisoslashgan yangi bo'linma bo'lib, u 2020 yildan buyon o'z faoliyatini olib bormoqda. Bu kunga qadar, “M-Exclusive Event” tomonidan bir qancha yirik tadbirlarni tashkil etganligiga qaramay, **maqsadli auditoriyaning kompaniya xizmatlaridan xabardorlik darajasi past**, bozorda esa raqobat muhiti juda keskin ekanligi ma'lum.



G'oya

Shu sababli, biz *maqsadli auditoriyani kompaniyamiz xizmatlari tog'risidagi xabardorligini yuksaltirish* va *bu orqali savdo hajmini oshirishga turtki beradigan integratsiyalangan kampaniya o'tkazishga qaror qildik.*



Birinchi bosqich: Ushbu muammoni hal qilish uchun biz promo-videoni sur'atga olishga qaror qildik. Promo-videoda, tadbirlarni tashkillashtirish jarayonida, ushbu sohada professional tajribaga ega bo'lmagan ko'pchilik insonlar duch keladigan asosiy muammolarni ko'rsatishga intildik. Shunday qilib, bizning kompaniyamiz bunday muammolarni samarali hal qilishini, hamda tadbirlarni tashkil etishda barcha logistikalarni to'g'ri boshqara olishini ko'rsatmoqchi bo'ldik.



Quyida keltirilgan xulosalarimiz, kompaniyamiz tomonidan amalga oshirilgan oldingi tadbirlarimizning ichki tahlili, hamda mijozlar bilan ishlash jarayonidagi kuzatuvlarimiz asosida ishlab chiqildi. Kuzatishlarimiz natijasida biz 3 ta asosiy muammoni aniqladik:

1) Rejalashtirish uchun vaqt yo'qligi - mijozlar ko'pincha o'zlari amalga oshira olmaydigan muddatlarni belgilaydilar va shu sababli, ko'p hollarda oldindan tasdiqlangan jadval asosida tadbirga tayyorgarlik ko'rishga ulgurmaydilar;



- 2)** Muvaffaqiyatni samarasiz o'lchash - mijozlar ko'pincha rejalashtirish vaqtida tadbirning asosiy maqsadi va vazifalaridan chetga chiqadilar va natijada tadbirning samaradorligini baholash qiyinlashadi;
- 3)** Byudjetni noto'g'ri taqsimlash - ko'pincha mijozlar o'z byudjetlarini noto'g'ri taqsimlaydilar, buning oqibatida arzon va kafolatga ega bo'lmagan texnika va xizmatlardan foydalanilishiga sabab bo'ladi - va bu kompaniya brendi obro'siga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jiddiy muammoga aylanishi mumkin.



Ikkinchi bosqichda, biz ushbu promo-videoni targ'ib qilishning eng samarali kanallarini aniqladik.

Biz korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishimizni inobatga olgan holda, **maqsadli auditoriyamiz** boshqaruv lavozimlarini egallagan turli kompaniya vakillari (mustaqil qarorlar qabul qila oladigan), xususiy tadbirkorlar, biznes-trenerlar (biznes kouchlar) deb belgiladik.

Reklama

Ushbu marketing kampaniyasining asosiy vazifasi – bu bizning brendimiz tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar to'g'risida maqsadli auditoriyamizga ma'lumot yetkazish va ularni bizning xizmatlarimizdan foydalanishga targ'ib qilish. Bu maqsadimizga erishish uchun bir nechta marketing kommunikatsiyasi kanallarini tanladik (integratsiyalashgan kampaniya):



kun.uz 92,052 views
kun.uz M-Exclusive Event - tasavvuringiz haqiqatga aylanadi!


Tadbirlarni professional tarzda tashkil etish.

Bizning agentligimiz barcha turdagi keng ko'lamli tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, installyasyalarni yaratishga ixtisoslashgan.

Shuningdek, biz ochilish marosimlari, biznes-tadbirlar, bayramlar, matbuot tadbirlarini tashkil etish, tadbirlar uchun shou dasturlarini ishlab chiqish, LED ekranlar, yoritish uskunalari va ovoz uskunalarini tashkil qilib beramiz.

Biz bilan hayotingizdagi har bir voqea unutilmas bo'ladi.

Aloqa uchun:
@M_Exclusive_EVENT
+998 99 870 28 88



Kun.uz | Расмий канал 1M subscribers

0:43

M-Exclusive Event - тасаввурингиз ҳақиқатга айланади!

Тадбирларни профессионал тарзда ташкил этиш.

Бизнинг агентлигимиз барча турдаги кенг кўламли тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш, инсталляцияларни яратишга ихтисослашган.

Шунингдек, биз очилиш маросимлари, бизнес-тадбирлар, байрамлар, матбуот тадбирларини ташкил этиш, тадбирлар учун шоу дастурларини ишлаб чиқиш, LED экранлар, ёритиш ускуналари ва овоз ускуналарини ташкил қилиб берамиз.

Биз билан ҳаётингиздаги ҳар бир воқеа унутилмас бўлади.

Reklama

Kun.uz axborot saytining Instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy profili va Telegram messengeridagi kanali. Instagram - auditoriya: 4,4 million obunachilar; Sana: 31.08.2022; natija: ko'rishlar soni – 84863; Qamrab olishlar soni (oxvat): 176835 akkauntlar (shundan taxminan 10% obuna bo'lmaganlar); Qiziqishlar soni (vzaimodeystviye s akkaunтом): 2847 obunachilar; Profildagi faoliyati (deystviya v profile): 232 ta obunachilar.

Telegram - auditoriya: 1,1 mln obunachilar; Sana: 21.08.2022 (statistika 23.08.2022 sana uchun); natija: ko'rishlar soni - 365,1 ming, shundan 102 ta akkaunt videoni boshqalar bilan ulashgan.

Reklama

Ibrohim Gulyamov va **M-Faktor.uz** tomonidan tashkil etilgan biznes treninglar:

Ibrohim Gulyamovning biznes treningi - auditoriya: (500 ga yaqin tinglovchilar); Sana: Iyul; natija: tinglovchilarning 10% kompaniya xizmatlariga qiziqish bildirgan (arizalar asosan qo'ng'iroqlar orqali qabul qilingan), 2% tinglovchilar bilan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun shartnoma imzolagan.

M-Faktor.uz tomonidan tashkil etilgan biznes trening - auditoriya: (100 ga yaqin tinglovchi); Sana: Avgust; natija: tinglovchilarning 12% kompaniya xizmatlariga qiziqish bildirgan (arizalar asosan qo'ng'iroqlar orqali qabul qilingan), 3% tinglovchilar bilan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun shartnoma imzolagan.

Baholash

Strategiya samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar (metrika)

- Dastlabki ma'lumotlarni olish uchun murojaatlar sonining o'sishi (jami telefon va veb-sayt orqali kelib tushgan murojaatlar soni)
- Tadbirlarni tashkil etish bo'yicha imzolangan shartnomalar sonining o'sishi (konversiya)

NATIJA

Ushbu reklama kompaniyasi natijasida kompaniya xizmatlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni olishga bo'lgan murojaatlar soni 2 oy davomida (2022-yil, Iyul-Avgust oylari davomida) oldingi oylar soniga nisbatan (2022 yil, Yanvar-Iyun oylaridagi o'rtacha murojaatlar soni oyiga 12 ta ariza) 50%ga oshdi.

NATIJA

Tadbirlarni o'tkazish xizmatlari bo'yicha imzolangan shartnomalar soni 20% ga oshdi (2022-yilning Yanvar-Iyun oylarida o'tkazilgan tadbirlarning o'rtacha soni oyiga 5 ta tadbirni tashkil etadi), ushbu vaqt oralig'i davomida imzolangan shartnomalarning o'rtacha byudjeti esa 30% ga oshdi.

Bu esa, amalga oshirilgan kampaniya natijasida nafaqat tadbirlar soni, balki ularning hajmi (ya'ni ularga ajratilgan byudjet hajmi) ham oshganligidan dalolat beradi.



**E'tiboringiz
uchun rahmat!**

TAF! Tashkent
Advertising
Festival